

## PEDAGOGIK KORREKSIYA MAZMUNI

**Jonzoqova Sayyora Anvarovna**

*Guliston davlat universiteti Pedagogika va  
psixologiya" kafedrası òqituvchisi.*

**Eshmuhamedov Aziz**

*Ijtimoiy ish yònalishi 78- 21- guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada pedagogik korreksiya, korreksion faoliyat, pedagogik korreksion rivojlantiruvchi faoliyatlari va ularni amaliyotda qo'llash haqida yozilgan bo'lib, Korrektsiyaning pedagogik faoliyat jarayonida yoshlarda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablari muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlari hosil qilinishi samarali bo'lgan metodlar haqida to'xtalib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Pedagogika, korreksiya, pedagogik faoliyat, korreksion faoliyat, diagnostika, anomal bola, individ, anomaliya, suhbat metodi, kuzatish metodi, rasmlarni o'rganish metodi, tajriba-psixologik tadqiqotlar metodi, testlar metodi*

**Аннотация:** *В данной статье написано о педагогической коррекции, коррекционной деятельности, педагогической коррекционно-развивающей деятельности и их практическом применении. В процессе педагогической коррекционной деятельности эффективно формировать у молодых людей навыки и привычки поведения, соответствующие с моральными требованиями общества.*

**Ключевые слова:** *Педагогика, коррекция, педагогическая деятельность, коррекционная деятельность, диагностика, аномальный ребенок, личность, аномалия, метод интервью, метод наблюдения, метод исследования картинок, экспериментально-психологический метод исследования, метод тестирования.*

**Abstract:** *In this article, it is written about pedagogical correction, correctional activity, pedagogical correctional development activities and their practical application. In the process of pedagogical activity of correction, it is effective to create behavioral skills and habits in young people that are in accordance with the moral requirements of the society. methods are discussed.*

**Key words:** *Pedagogy, correction, pedagogical activity, correctional activity, diagnostics, anomalous child, individual, anomaly, interview method, observation method, picture study method, experimental-psychological research method, test method*

Pedagogik lug'atda "korreksiya" tushunchasi (yunoncha "correctio" — tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi.

Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus ta'lim das turiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan

yaxlit jarayon. Korreksiya-hayotiy chekinishlarga uchragan bolalar va o'smirlar bilan olib boriladigan aniq faoliyatdir.

Bir qator olimlar: R.S. Nemov, D. V. Olshanskiy, G. Broyer, G. Matteslar: "Pedagogik korreksiya-tarbiya jarayonida yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi oldindan yo'l qo'yilgan nuqsonlarni bartaraf etish jarayonidir" - deb hisoblaydilar.

N. V. Kuzmina bu jarayonni: «Korreksiyalash jarayoni-o'quvchilarning ongiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etuvchi va turli ijobiy qobiliyatlarini shakllantiruvchi faoliyat turidir» -deb tavsiflaydi. Korreksiyalash ta'sirida o'quvchi-yoshlarning g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlari tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi va shu bilan birgalikda tarbiya masalalari amalga oshiriladi. Korreksiya jarayonida yoshlarda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi. Demak, pedagogik diagnostika va korreksiya jarayonida bulardan birortasi (tafakkuri, ongi, hissiyoti, irodasi, qarashlari) e'tiboridan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

Korreksion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

1) rivojlanishida turli kamchiliklar bo'lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korreksion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;

2) differentsiyali o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;

3) anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;

4) rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;

5) bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

6) anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik chora tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

7) anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

Yuqorida ta'kidlanganidak, pedagogik korreksiyaning asosiy maqsadi va undan kutiladigan natija - o'quvchilar xulqidagi og'ishni tuzatish, ularda ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga nisbatan e'tiqodni shakllantirish va bu e'tiqodni darsning xulq-atvoriga aylanishiga yordam berishdan iborat. Shu sababli, korreksion faoliyat, birinchi navbatda, o'quvchi shaxsida u yoki bu fazilatga nisbatan e'tiqodni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

E'tiqod - bu muayyan xarakterning zarurligi va to'g'riligini tushuntirish va isbotlash bo'lib, shaxs ma'naviy bilimlarining haqiqiyliigi va adolatli ekanligiga qat'iy

ishonch, axloqiy faoliyatiga va xarakatiga nisbatan shakllangan ichki xohishdir. E'tiqod ishontirish zaminida shakllanadi. Masalan, yoshlarda moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligining muhimligiga nisbatan e'tiqodni shakllantirish uchun eng avvalo bu uyg'unlik ularning barkamol bo'lishlarida qay darajada zarur ekanligini anglab yetishlari kerak bo'ladi.

Ishontirish jarayonida pedagog o'quvchi shaxsining ongi, his-tuyg'ulari va irodasiga ta'sir o'tkazadi. Ishontirishning asosiy vazifasi - ijtimoiy va axloqiy me'yorlarning mazmunini shaxs ongiga yetkazish va kelgusi faoliyat mazmunini aniqlashdan iborat. Ishontirish metodi orqali, korreksiya maqsadiga erishish uchun shaxsning o'ziga xos xususiyatlari, xulqi, qiziqishlari, qadriyatlari, shaxsiy tajribasi kabi omillarni hisobga olish zarur.

Ishontirish pedagogika sohasidagi hikoya, suhbat, kirish ma'ruzasi, videoma'ruza, illyustratsiya kabi metodlar orqali amalga oshiriladi. Ishontirish - bu ma'lum fazilatning to'g'riligi va zarurligini tushuntirish hamda isbotlash bo'lib, kishi ongini "dasturlashtirilsa", mashq qilish kishida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. Ishontirish va mashq qilish metodlari o'zaro chambarchas bo'g'liqdir.

Mashq qildirish - shaxs faoliyati va harakatlarida zarur bo'lgan ko'nikma hosil qilish usuli bo'lib, mustahkamlanishga qadar bo'lgan ko'p marta takrorlanuvchi harakatga aytiladi. Ko'nikmalarning shaklanishi quyidagi ketma-ketlikda sodir bo'ladi:

- vazifa qo'yiladi;
- vazifaning bajarilish qoidalari tushuntiriladi;
- vazifalarni bajarishga shaxsda ehtiyoj uyg'otiladi;
- vazifa amalda bajarib ko'rsatiladi;
- amaliy mashq tashkil qilinadi;
- to'g'ri bajarishga talablar qo'yiladi;
- talablarni bajarib zarurligi eslatiladi;
- vazifaning qay darajada talablarga muvofiq va to'g'ri bajarilishi kuzatib boriladi.

Pedagogik korreksiya faoliyatida rag'batlantirish va jazolash metodlaridan ham foydalaniladi.

Rag'batlantirish va jazolash - o'quvchi shaxsiga ta'sir qilishning murakkab usullaridan bo'lib, ular o'quvchi xarakterida ma'lum axloqiy sifatlarni shakllantirish maqsadida qo'llanilishi mumkin. Bunda, rag'batlantirish - harakat va holatni ma'qullaydi, jazolash esa - noto'g'ri harakat va faoliyatni qoralaydi, unga yomon baxo beradi. Jazolash va rag'batlantirish bola harakati va uning oqibati orasidagi muharrar bog'liqlikni eslatadi (rag'batlantirish - qoniqish, jazo - norozilik).

Pedagogik korreksiya jarayonida bu metodlar pedagog tomonidan turli ko'rinishlarda qo'llanilishi mumkin bo'lib, bular o'quvchini qayta ishontirish, ogohlantirish kabilarni ham o'z ichiga oladi.

Qayta ishontirish ishontirish metodiniig bir ko'rinishi bo'lib, uning mohiyati o'quvchi ongidan noto'g'ri tasavvurlar, xato hayotiy rejalarni mantiqiy tushuntirish orqali surib chiqarishdan iborat.

Ogohlantirish metodi pedagogik korreksiyada keng qo'llaniladi, u o'quvchining noto'g'ri xatti-harakatlarining oldini olish, ularga yo'l qo'ymaslik maqsadida qo'llaniladi.

Pedagogik korreksiya jarayonida o'quvchi shaxsida zarur fazilatlarni shakllantirishda ta'lim metodlarining ikki guruhidan - ma'lumot beruvchi va faollashtiruvchi metodlardan ham foydalanish mumkin. Umuman olganda, bu metodlar shaxsga ma'lumot berish orqali uni ishontirishga va mashq qildirishga qaratilgan bo'lib, shaxs faoliyati samaradorligini oshirishi ta'minlashi zarur. Pedagog bu metodlar vositasida yoshlar ongida ma'naviy-axloqiy fazilatlarga oid to'g'ri va aniq tasavvurlarni, ijobiy his-tuyg'ularni hamda e'tiqod shakllantirishi, ularni hayotdagi o'z o'rinlarini topishlariga ko'maklashishi kerak bo'ladi.

Ma'lumot beruvchi metodlar - o'quvchiga ma'lumotni og'zaki va (yoki) vizual holda yetkazib, unda korreksiya qilinishi belgilangan muammoga oid bo'lgan yetarlicha chuqur va keng bilimlarning shakllanishiga yordam beradi. Bu metodlarni ba'zi adabiyotlarda "didaktik metodlar" deb ham yuritiladi. Ushbu metodlarning asosiy maqsadi - o'quvchi(lar)ga imkon qadar qisqa vaqt mobaynida muammoning kelib chiqishi, uning mohiyati hamda bartaraf qilish imkoniyatlari to'g'risida yetarlicha katta hajmdagi ma'lumotni berishdan iborat.

Korreksiya jarayonida ma'lumot beruvchi metodlarga og'zaki bayon qilish, kirish ma'ruzasi, videoma'ruza, slaydli taqdimot, illyustratsiya hamda brifing kabilarni kiritish mumkin.

O'quvchilarga ma'lumot berishda og'zaki bayon qilishning suhbat va hikoya kabi turlaridan foydalanilganda quyidagi didaktik talablarga rioya qilish kerak bo'ladi:

- bayon qilinayotgan materiallar g'oyaviy jihatdan mazmunli bo'lishi, ilmiy va nazariyani amaliyot bilan bog'lanishi;
- bayon qilinayotgan materiallarning tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri belgilash orqali o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish vositalarini aniqlanishi va amalga oshirilishi;
- bayon qilishda pedagogning nutqi yagona manba hisoblanib, uning ravon, tushunarli va his-tuyg'uli ifoda qilinishi.

Korreksiya jarayonida ko'rgazmalilik metodidan foydalanishning muhimligi pedagogning tahlil qilinayotgan muammolarni hissiy idrok etish va mushohada qilishga o'quvchilarni undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilishlariga va nihoyat, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishlariga o'rgatish bilan izohlanadi. Bunda o'quvchilarning imkon qadar barcha reprezentativ tizimlarini faollashtirishga erishish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik korreksiyada ko'rgazmalilik metodi namoyish etish, illyustratsiya va ekskursiya tariqasida olib borilishi mumkin. Bunda namoyish etish va illyustratsiya qilishda qo'llaniladigan tasviriy - ko'rgazmali materiallarni, ularning mazmuni va tuzilishiga qarab, ikki turga bo'lish mumkin:

1. Jism, hodisa va voqealarning tasvirini ifodalovchi materiallar - rasm, surat, fotosurat, diafihn, kinofilmlar va hokazo.

2. Jism, hodisa va voqealarning biror shartli belgisi orqali ifodalangan simbolik yoki sxematik tasviriy materiallar - xaritalari, chizmalar, diagrammalar va hokazo.

Tasviriy-ko'rgazmali materiallarning har ikkala turi - ill-yustratsiya materiallari deb ham yuritiladi. Masalan, buyum va narsalarni tabiiy holda ko'rsatishni ikki usulda namoyish qilish mumkin:

- pedagog bayon qilayotgan materiallari bilan bir vaqtda (faqat pedagog tomonidan tahlil qilinayotgan muammoga oid ko'rgazma materiallari bilangina) ko'rsatilishi;

- ko'rgazmali materiallarning soni yetarlicha bo'lsa, ular har bir o'quvchiga tarqatilishi.

Tasviriy ko'rgazma materiallarining har ikkala turini ham ikki xil usulda olib borish mumkin:

- ko'rgazma materialni pedagog namoyish qiladi;

- ko'rgazma materiallar o'quvchilarga tarqatiladi.

Pedagogik korreksiyada tasviriy illyustratsiya materiallaridan unumli foydalanish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilish zarur:

- o'quvchilarga mashg'ulot oldidati namoyish jarayonida ko'zlangan maqsad, e'tibor berilishi kerak bo'lgan detallar qisqacha tushintiriladi;

- ko'rgazmali materiallar pedagog bayonining ma'lum paytida ko'rsatiladi va (yoki) tarqatiladi;

- namoyish jarayoni pedagog tomonidan izohlab beriladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya ishlari metodik jihatdan to'g'ri yo'naltirilganda jamiyatning har bir a'zosi ongiga milliy istiqlol g'oyalari singdirishda, mafkuraviy immunitet hosil qilishda, o'quvchilarning o'zligini anglashlarida, vatanparvarlikni, millatlararo totuvlikni, diniy bag'rikenglikni, tolerantlikni shakllantirishda hamda komil insonga xos bo'lgan fazilatlarni: sofdillik, to'g'riso'zlik, adolatparvarlik, sahovatlilik, ornomuslik, tantilik va boshqa sifatlarni tarkib toptirishda ijobiy samara beradi.

Pedagogik tashxislash va yoshlarning xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalash masalalari bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo'lib borishi mustaqil O'zbekistonning har tomonlama rivojlanishidan, jamiyat a'zolarining ma'naviy ma'rifiy hayotida paydo bo'lgan muammolarini hal etilayotganidan dalolatdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003.

2. M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi / Prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. – T.: Iqtisod-moliya, 1996.
3. G'ulomov J.R., Raimova M. Tarbiyaviy-korreksion faoliyat metodikasi: Metodik qo'llanma. -Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2010.-1196.
4. Ishmuxamedov R. va boshd. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). -T.: Iste'dod, 2008. -180 b.
5. Mavlonova R., To'rayeva O., Xolidberdiyev K. Pedagogika / Darslik. - Toshkent: O'qituvchi